




**MUSULMONGA
O'XSHAMAY QOLDIK**




**Laa Ilaha Illalloh aytib,
Mo'min degan bir unvon oldik.**

**Ammo yana gunohga qaytib,
Musulmonga o'xshamay qoldik.**

**May to'ldirib xum va ko'zamiz,
Ichdik sharob, totdik bo'zamiz.**

**Qilmay toat, tutmay ro'zamiz,
Musulmonga o'xshamay qoldik.**




**Qiziga shim tanlayur ota,
Doooood vijdonin iblisga sota.
Gunoh degan botqoqqa bota,
Musulmonga o'xshamay qoldik.**


**Tupurdi qalb bulog'imizga,
Bomdod chog'i gar uxlab oldik.
Shayton "suyib" qulog'imizga,
Musulmonga o'xshamay qoldik.**

O‘z ko‘ksimni tig‘lab aytyapman,
Dilga malham izlab aytyapman.
Kulib emas yig‘lab aytyapman,
Musulmonga o‘xshamay qoldik.


Bizlarda yo‘q xayo va ibo,
Xar tomonda faxsh, kibr, ribo.
G‘am qasriga qilib marxabo,
Musulmonga o‘xshamay qoldik.



Endi esa yuribmiz dodlab,
Farzandimiz iblisni shodlab-
Qur'on emas, rok yursa yodlab,
Musulmonga o'xshamay qoldik.



Taloq degan so'zga cho'kdik tiz,
Yor tug'sa gar o'g'il emas qiz.
Boshqalarni bilmadimu biz,
Musulmonga o'xshamay qoldik.



**Qilgan minglab gunohimizdan,
Pushaymonga o'xshamay qoldik.**

**Xayo qilmay Panohimizdan,
Musulmonga o'xshamay qoldik.**

**Qur'on yotur javonda bekor,
Joynamozni sandiqqa soldik.
Kechir bizni yo Parvardigor,
Musulmonga o'xshamay qoldik.**

**Yurak qoldi iymondan bo'shab,
Yuraverdik kibrimiz to'shab.
Ajnabiya shu qadar o'xshab,
Musulmonga o'xshamay qoldik.**

Abdurahmon Meshayan

manfaatli

“Ey, iymon keltirganlar!
Islomga to‘lig‘icha kiring.
Va shaytonning izidan
ergashmang. Albatta, u
sizga ochiq dushmandir.”

(Baqara surasi, 208-oyat)

manfaatli